

SHIFOKOR VA BEMOR MULOQOTINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Olimjonova Ziyat Bobamurod qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o'qituvchisi

Mirzakarimova Sojida Xayrulla qizi

Eshova Mushtariybonu Bahtiyor qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talablari

Annotatsiya: Ushbu maqola shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot jarayonining ijoboy kechishi, ikki taraf ham bir-biridan manfaatdor bo'lgan holda jarayondan chiqishiga qaratilgan. Bemorning jismoniy holatini va ruhiy kechinmalarini inobatga olib shifokorning ish qanday ish yuritishi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Muloqot, psixologik muloqot, komunikatsiya, interaksiya, shifokor madaniyati, bioetika.

Shaxs-ijtimoiy munosabatlar mahsuli, deyilishining eng asosiy sababi, uning doimo insonlar davrasida ular bilan o'zaro tasir doirasida bolishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqot- bu shunday murakkab, ko'p rejali jarayonki, uning yordamida insonlar o'rtasida doimiy aloqa o'rnatiladi. Muloqot minimal darajada 3 tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kommunikatsiya (Axborot almashinuv)
2. Interaksiya (Harakat almashinuvi)
3. Suhbatdoshni qabul qilish va tushunish

Insoniy munosabatlari shunday jarayonlarki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayonlar dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar almashinuvi nazarda tutiladi. Psixologik muloqot tibbiy tarafdin shuni anglatadiki, bunda davolash ishlari va bemorlarni parvarishlash, shifokor va bemor doirasidagi muamollar, bemorlarning turli holatlariga ta'sir etish shuningdek, tibbiyot hodimlarining bu jarayonlarda o'zini qay darajada tuta bilishi tushuniladi.

Bemor va shifokor muloqoti shartli ravishda ikki doirada kechadi. Birinchi, tashqi doira zanjirida shifokorning bemor bilan muloqotga tayyorlanish bosqichidagi yani bemorning kasallik haqidagi arzi bilan emas balki uni ishlaydigan kasbi, uni qiziqtirgan boshqa narsalar bilan aqliy salohiyati aniqlanadi. Ikkinchi, ichki doirani esa bemor shaxsini, uning kasallik sabablarini begilovchi dalillar zanjirini aniqlash umumiy ahvoliga baho berish bilan kechadi. Shifokor bemor bilan muloqotning avvalidayoq uning saviyasiga mos ravishda suhbatlashishi muhim. Bemor hunarmand bo'lsa, shunga mos maqomda, akademik bo'lsa, albatta, uning yuqori saviyasiga

yarasha muomala qila olishi asosiy talablardandir. Shifokor, bemor bilan muloqotga kirishar ekan, uning ko'z o'ngida ma'lum ma'noda kamchiliklardan holi, yuksak axloqli inson sifatida gavdalanishi zarur. Shifokor ma'naviyati deganda, ma'nili fikrlashi, so'zlashi, shuningdek shaxsiyatidagi, tarbiya va odobidagi hamda amaliyotidagi barcha ijobiy xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi.

Mohir shifokor haqida aytish mumkinki, yaxshi suhbatdosh atirfurushga o'xshaydi, garchi u senga atridan bermasa ham xushbo'y hidi yetib turadi. Shifokor bemor ko'nglini ko'tarib agar u yosh bo'lsa, «hali to'yingizda osh yeymiz, xizmat qilamiz», yoshi ulug'roq bo'lsa - «hali nevara-yu chevaralaringizni boqib yurasiz», qabilida gaplar aytishi kerakki, bemor beixtiyor bunday ko'ngilga yoquvchi muloqotni mamnuniyat bilan eslasin. Shifokor va hamshiralarning bemorlarga murojaatida psixologik tomonning kulminatsion nuqtasi shundaki shifokor bemorning shaxsiy chegarasidan o'tmagan holda uning ruhiyatiga tasir etmasdan muloqotga kirishish yani ijobiy muloqotning kalitini topmog'i zarur.

Shifokor va bemor aloqasida bir necha xil jarayonlar kechadi:

-shifokor o'zining bilimlariga tayangan holda bemorga nima kerakligini yaxshi biladi, shu sababli bemorning ishtirokisiz qaror qabul qiladi

-shifokor bemorning shikoyatlaridan kelib chiqib unga sog'ligi borasida qanday malmotni yetqazishni yaxshi biladi va bemorga sog'ayishi uchun kerakli tafsiyani bemorni ishtirokisiz tavsiya qiladi

-bemorga uning sog'ligi borasidagi barcha malumotlar yetkaziladi. Bunda shifokor ekspert rolini o'ynaydi. Bemor esa mustaqil ravishda qaror qabul qiladi.

-shifokor faol tarzda bemorni fikr va tushunchalariga tasir etib uning to'g'ri qaror qabul qilishiga yordam beradi va bemor bilan kelishuv asosida ish yuritadi

Tibbiyot xodimlarining kasbga munosabati, axloq-odobi, shuningdek, shifokorlar va bemorlar orasidagi turli huquqiy munosabatlar zamonamiz tilida bioetika va deontologiya deyiladi. Buni sodda shaklda ona tilimizga ko'chirsak, tibbiyot xodimi bilan bemor o'rtasidagi burchga sodiqlik, muomala qoidalariga rioya qilishi va yaxshi, to'g'ri muloqot, munosabat ham desa bo'ladi.

Tibbiyot ilmiy allomalaridan bo'lmish Buqrot: «San'atlar ichida tabobat eng olijanob san'atdir», - deb ta'kidlagan. Yana Buqrot: «Bemorni dori bilan emas, balki so'z bilan davolash afzal» desa, Abu Ali ibn Sino uning bu fikrini quvvatlarkan: «Bemor borki, uni so'z bilan davolasa bo'ladi», - deb aytgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimovna, N. Y. (2022). YOSHLARDA INTERNETGA TOBELIK MUAMMOLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 96-99.
2. Xudoynazarovich, E. A., & Ulug'bekovich, X. O. (2023). BEMORLARDAGI JARROHLIK OPERATSIYASIDAN OLDINGI VA KEYINGI

- PSIXOEMOTSIONAL HOLATLAR. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(1), 89-92.
3. Rustamovna, A. S. (2023). XOTIRA BILAN BOG'LIQ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIYANING O'RNII. *Journal of new century innovations*, 26(2), 17-19.
 4. Baxtiyor o'g'li, M. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA KONFLIKTLARNI OLDINI OLIHGA QARATILGAN STRATEGIYALAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 20-21.
 5. Ravshanovna, R. Z. (2023). PSIXOLOGIK KASALLIKLAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 22-24.
 6. Akramovich, A. A. (2023). KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVCNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 17(5), 33-35.
 7. Baxtiyarovna, S. D. B. D., & Orifjonovna, Q. H. (2022). KASB TALIM METODIKASINING ZAMONAVIY METODLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 417-420.
 8. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
 9. Karimovna, N. Y., & Shuhrat O'g'li, R. S. (2023). SHIFOKOR VA BEMOR O'RTASIDAGI SHAXSLARARO MUNSOBATNING O'ZIGA XOSLIGI. *Scientific Impulse*, 1(8), 695-700.
 10. Baxtiyarovna, S. D., & Ziynat, O. (2023). PSIXOSOMATIK KASALLIKLARIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOPROFILLAKTIK USULLAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 861-864.
 11. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). PSIXOLOGIYADA ONG VA ONG HAQIDAGI NAZARIYALAR. *Scientific Impulse*, 1(8), 857-860.
 12. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLIHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. *Journal of new century innovations*, 27(2), 46-49.
 13. G'ayratovich, K. B., & Mirzohidovich, M. M. O. (2023). XOTIRA RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. *Journal of new century innovations*, 27(2), 54-57.
 14. Baxtiyor o'g'li, M. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA KONFLIKTLARNI OLDINI OLIHGA QARATILGAN STRATEGIYALAR. *Journal of new century innovations*, 26(2), 20-21.
 15. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
 16. Olimjonova, Z. B. Q. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALAR EMOTSIONAL SOHASI PSIXOFIZIOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 311-315.